



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II - QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDIT LARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожихонов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	



KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna
Andijon davlat texnika instituti
"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznesni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Unda kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini, iqtisodiy o'sish, aholi bandligi va innovatsion rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi, kichik biznes subyektlarini tasniflash mezonlari hamda O'zbekistonda sohani qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganilgan. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari asosida kichik biznes raqobatbardoshligini oshirish, institutsional muhitni takomillashtirish va rivojlanish mexanizmlarini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish, innovatsiya, raqobatbardoshlik, institutsional muhit, davlat qo'llab-quvvatlashi, investitsiyaviy jozibadorlik.

Аннотация: В статье исследованы теоретико-методологические основы развития малого бизнеса. Рассмотрены роль малого бизнеса в национальной экономике, его значение в обеспечении экономического роста, занятости населения и инновационного развития. Проанализированы международный опыт, критерии классификации субъектов малого бизнеса и механизмы государственной поддержки в Узбекистане. В исследовании использованы методы системного подхода, сравнительного и экономико-статистического анализа, а также научного обобщения. На основе результатов исследования разработаны предложения по повышению конкурентоспособности субъектов малого бизнеса, совершенствованию институциональной среды и развитию механизмов их устойчивого функционирования.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, экономический рост, инновации, конкурентоспособность, институциональная среда, государственная поддержка.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations of small business development. It analyzes the role of small businesses in the national economy, particularly their contribution to economic growth, employment, and innovation development. The study also considers international experience, classification criteria of small business entities, and government support mechanisms in Uzbekistan. The research applies systematic, comparative, economic-statistical analysis, and scientific generalization methods. Based on the findings, recommendations are developed to improve the competitiveness of small businesses, enhance the institutional environment, and ensure sustainable development of business entities.

Keywords: small business, entrepreneurship, economic growth, innovation, competitiveness, institutional environment, government support, investment attractiveness.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes mamlakat iqtisodiy tizimining muhim va dinamik rivojlanuvchi tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning samarali faoliyat yuritishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, raqobat muhitini shakllantirish hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois kichik biznesni rivojlantirish masalalari zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [4, 5].

O'zbekistonda so'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, mazkur sohada qulay institutsional muhitni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [1, 2]. Jumladan, tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini kuchaytirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ma'muriy to'siqlarni qisqartirish va biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1, 2, 3].



Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2023-yildagi "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-306-son¹ qarori [3] hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.11.2023-yildagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-son² Farmonida belgilangan vazifalar kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish va ularning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan muhim institutsional asoslarni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasining 02.05.2012-yildagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son³ Qonuni hamda mamlakat taraqqiyotining strategik hujjatlarida xususiy sektorni rivojlantirish, kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish va ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1].

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish masalalari nafaqat iqtisodiy o'sish manbai, balki innovatsion faollikni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish va hududiy rivojlanishni ta'minlash omili sifatida ham namoyon bo'lmoqda [5, 6]. Shu sababli kichik biznesni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish, xorijiy tajribani o'rganish va O'zbekiston sharoitiga mos samarali rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi – kichik biznesni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

- kichik biznes tushunchasining iqtisodiy mazmuni va nazariy asoslarini yoritish;
- kichik biznes rivojlanishining zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilish;
- xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni rivojlantirish tajribasini o'rganish;
- O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaliy holatini baholash;
- kichik biznesni barqaror rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari iqtisodiy fanlarda keng tadqiq etilgan bo'lib, uning shakllanishi tadbirkorlik nazariyasining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Xorijiy iqtisodiy maktablar vakillari tomonidan tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyati, uning bozor munosabatlaridagi o'rni hamda iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri turli nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan.

Tadbirkorlik nazariyasining dastlabki shakllanishida R. Kantilyon, J.B. Sey va A. Smit kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi [15]. R. Kantilyon tadbirkorni bozordagi noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyekt sifatida baholagan [13]. J.B. Sey esa tadbirkorning asosiy vazifasini ishlab chiqarish omillarini samarali birlashtirish va iqtisodiy resurslardan unumli foydalanish bilan bog'lagan [14].

Keyingi davr iqtisodiy tadqiqotlarida Y. Shumpeter tadbirkorlikning innovatsion xususiyatiga alohida e'tibor qaratib, tadbirkorni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, yangi mahsulotlar yaratish, ishlab chiqarish usullarini takomillashtirish va yangi bozorlarni o'zlashtirish iqtisodiy o'sishning muhim manbalari hisoblanadi [10]. Mazkur yondashuv bugungi kunda kichik biznesni innovatsion rivojlantirish masalalarini o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda kichik biznesning roli uning moslashuvchanligi, bozor o'zgarishlariga tez javob qaytarish qobiliyati, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlari bilan izohlanadi. P. Druker tadbirkorlikni mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga asoslangan boshqaruv jarayoni sifatida baholagan bo'lsa [11], R. Hisrix tadbirkorlikni yangi qiymat yaratishga yo'naltirilgan ijodiy va iqtisodiy faoliyat sifatida talqin qilgan [12].

Xalqaro tadqiqotlarda kichik biznesning institutsional rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, J. Nortning institutsional nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy subyektlar faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan huquqiy muhit, rasmiy va norasmiy institutlar hamda davlat boshqaruv mexanizmlariga bog'liq. Bu yondashuv kichik biznesni rivojlantirishda nafaqat tadbirkorlik tashabbusi, balki institutsional sharoitlarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi [9].

1 <https://www.lex.uz/uz/docs/-6609110>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-6658633>

3 <https://lex.uz/docs/-2006789>



O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning nazariy va amaliy jihatlari keng o'rganilgan. D.S. Qosimova tadqiqotlarida kichik biznes subyektlarini tashkil etish, boshqarish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan [17]. O.A. Aripov ishlarida tadbirkorlik muhitini shakllantirish, davlat tomonidan tartibga solish va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan [18]. Shuningdek, O.H. Xudoyqulov, M.A. Shanayev va X.M. Israilova tadqiqotlarida kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligi, iqtisodiy samaradorligi va faoliyat natijalarini baholash masalalari o'rganilgan [19, 20].

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning iqtisodiy mohiyati, uning iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashdagi roli yetarlicha o'rganilgan. Biroq zamonaviy sharoitda kichik biznesni rivojlantirishda raqamli transformatsiya, innovatsion faollikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, investitsiyaviy jozibadorlikni kuchaytirish hamda hududlar kesimida rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari qo'shimcha tadqiqotlarni talab etmoqda.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotda kichik biznesni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tizimli va institutsional yondashuvlar asosida tahlil qilinib, xorijiy tajriba hamda O'zbekiston amaliyoti qiyosiy baholanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznesni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish hamda uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va rivojlanish omillarini baholash maqsadida tizimli yondashuv, institutsional yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tizimli yondashuv asosida kichik biznes milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganildi. Institutsional yondashuv orqali huquqiy muhit, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va biznes infratuzilmasining soha rivojlanishiga ta'siri tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil yordamida rivojlangan mamlakatlar tajribasi hamda O'zbekiston amaliyoti taqqoslandi, iqtisodiy-statistik tahlil orqali esa kichik biznesning yalpi ichki mahsulot, bandlik, sanoat, xizmatlar va eksportdagi ulushi baholandi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, Prezident farmon va qarorlari, Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari, OECD, Yevropa Komissiyasi va boshqa xalqaro tashkilotlar hisobotlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari tashkil etdi [5, 6, 7, 8, 16].

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, yalpi ichki mahsulotni shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, raqobat muhitini rivojlantirish va innovatsion faollikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Yevropa Ittifoqida korxonalarning asosiy qismini kichik va o'rta biznes subyektlari tashkil etib, ular xususiy sektordagi bandlik va iqtisodiy faollikning muhim manbai hisoblanadi [7]. AQSH, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ham kichik biznes iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi va yangi iqtisodiy imkoniyatlarni shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar natijasida mazkur sektorning iqtisodiyotdagi roli tobora ortib bormoqda. Tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarining soddalashtirilishi, soliq ma'murchiligining takomillashtirilishi, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining kengaytirilishi va raqamli xizmatlarning joriy etilishi kichik biznes subyektlarining faolligi hamda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Kichik biznes subyektlarini tasniflash mezonlari sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlarda kichik biznesni aniqlashda yagona mezon mavjud emas. Ayrim davlatlarda asosiy mezon sifatida xodimlar soni qabul qilinsa, boshqa mamlakatlarda yillik aylanma, daromad, aktivlar qiymati va faoliyat turi kabi ko'rsatkichlar ham hisobga olinadi.

Shu munosabat bilan turli mamlakatlarda kichik biznes subyektlarini tasniflash mezonlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Turli mamlakatlarda kichik biznes subyektlarini tasniflash mezonlari⁴ (xodimlar soni va yillik aylanma asosida)

Davlat	Mikro korxona	Kichik korxona	O'rta korxona	Asosiy mezon
Yevropa Ittifoqi	10 nafargacha xodim; yillik aylanma yoki balans qiymati 2 mln yevro gacha	50 nafargacha xodim; yillik aylanma 10 mln yevro gacha	250 nafargacha xodim; yillik aylanma 50 mln yevro gacha (yoki balans 43 mln yevro gacha)	Xodimlar soni, yillik aylanma, balans
AQSH	Yagona mikro toifa mavjud emas; tarmoqqa qarab belgilanadi	Odatda 500 nafargacha xodim; yillik tushum tarmoq bo'yicha belgilangan me'yorlar asosida (ayrim sohalarida 7,5 mln dollardan 40 mln dollargacha)	Alohida o'rta biznes toifasi mavjud emas	Xodimlar soni va yillik tushum
Yaponiya	Sanoatda 20 nafargacha, savdo va xizmatlarda 5 nafargacha xodim; kapital va sotuv hajmi bo'yicha belgilanadi	Sanoatda 300 nafargacha xodim va kapital 300 mln iyenagacha; ulgurji savdoda 100 nafargacha va kapital 100 mln iyenagacha; chakana va xizmatlarda 50 nafargacha va kapital 50 mln iyenagacha	Alohida o'rta biznes toifasi ajratilmaydi	Xodimlar soni, kapital va sotuv hajmi
Janubiy Koreya	Tarmoqqa qarab xodimlar soni va yillik sotuv hajmi belgilanadi	Ko'p tarmoqlarda 50–300 nafargacha xodim; yillik sotuv hajmi belgilangan chegaralar asosida	O'rta biznes mezonlari tarmoq bo'yicha belgilanadi	Xodimlar soni, yillik sotuv, aktivlar
Rossiya	15 nafargacha xodim; yillik daromad 120 mln rublgacha	100 nafargacha xodim; yillik daromad 800 mln rublgacha	101–250 nafar xodim; yillik daromad 2 mlrd rublgacha	Xodimlar soni va yillik daromad
Qozog'iston	15 nafargacha xodim; yillik daromad 30 000 MRP gacha	100 nafargacha xodim; yillik daromad 300 000 MRP gacha	250 nafargacha xodim; yillik daromad 3 mln MRP gacha	Xodimlar soni va yillik daromad
O'zbekiston	Faoliyat turiga qarab: ishlab chiqarishda 20 nafargacha, xizmat sohasida 10 nafargacha, savdo sohasida 5 nafargacha xodim; yillik jami daromadi 1 mlrd so'mgacha	Faoliyat turiga qarab: sanoat tarmoqlarida 50–200 nafargacha, xizmat va savdo sohalarida 25 nafargacha xodim; yillik jami daromadi 1–10 mlrd so'm	O'rta tadbirkorlik subyektlari: yillik jami daromadi 10–100 mlrd so'm; xodimlar soni va faoliyat turi hisobga olinadi	Xodimlar soni, faoliyat turi, yillik jami daromad (aylanma)

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlarda kichik biznes subyektlarini tasniflash mezonlari iqtisodiy rivojlanish darajasi, tarmoq xususiyatlari va davlat iqtisodiy siyosati maqsadlaridan kelib chiqqan holda shakllangan. Xalqaro amaliyotda kichik biznesni aniqlashda yagona yondashuv mavjud emas, ammo aksariyat mamlakatlarda asosiy mezonlar sifatida xodimlar soni va korxonaning yillik aylanma (daromad) hajmi qo'llaniladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida kichik va o'rta biznes subyektlarini tasniflashda xodimlar soni bilan bir qatorda yillik aylanma va balans qiymati ham hisobga olinadi. Bunday ko'p mezonli yondashuv korxonaning haqiqiy iqtisodiy salohiyatini aniq baholash imkonini beradi. Natijada davlat tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy va institutsional ko'mak choralari korxonalarning real ehtiyojlariga mos ravishda yo'naltiriladi.

AQSH tajribasida kichik biznes subyektlarini belgilashda asosiy e'tibor tarmoq xususiyatlariga qaratiladi. Ya'ni, turli iqtisodiy sohalar uchun xodimlar soni va yillik tushum bo'yicha alohida me'yorlar belgilanadi. Bu yondashuv har bir tarmoqning kapital sig'imi, ishlab chiqarish xususiyati va bozor hajmini inobatga olish imkonini beradi.

4 Manba: European Commission SME Definition; U.S. Small Business Administration Size Standards; OECD SME and Entrepreneurship materials; 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.11.2023-yildagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-665863>



Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi kichik biznes subyektlarini baholashda nafaqat mehnat resurslari, balki kapital hajmi, sotuv ko'rsatkichlari va aktivlar qiymati kabi mezonlarning ham muhimligini ko'rsatadi. Mazkur mamlakatlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati asosan innovatsion rivojlanish, texnologik yangilanish va eksport salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan.

Rossiya va Qozog'iston tajribasida kichik biznesni tasniflashda xodimlar soni va yillik daromad asosiy mezon sifatida belgilangan. Ushbu yondashuv O'zbekiston amaliyotiga yaqin bo'lib, kichik biznes subyektlarining hajmini baholashda mehnat resurslari va iqtisodiy natijalarni birgalikda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini tasniflashda xodimlar soni, faoliyat turi hamda yillik jami daromad ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Bu yondashuv ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo sohalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi. Biroq xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini yanada aniq baholash uchun yillik aylanma, aktivlar hajmi, eksport faolligi va innovatsion ko'rsatkichlarni ham kengroq qo'llash maqsadga muvofiq.

Jadval ma'lumotlarining qiyosiy tahlili asosida aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni tasniflash tizimi asosan korxonaning miqdoriy ko'rsatkichlari bilan birga sifat ko'rsatkichlarini ham qamrab oladi. Bu esa davlat qo'llab-quvvatlash choralari manzilli amalga oshirish, statistik hisobni takomillashtirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini tasniflash tizimini yanada takomillashtirishda xalqaro tajribadan kelib chiqib, xodimlar soni va yillik aylanma ko'rsatkichlarini birgalikda baholash, shuningdek, innovatsion va eksportga yo'naltirilgan korxonalar uchun alohida yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunday qilib, xalqaro tajriba tahlili kichik biznes subyektlarini baholashda xodimlar soni, yillik aylanma, moliyaviy ko'rsatkichlar va faoliyat turi kabi mezonlarni kompleks hisobga olish muhimligini ko'rsatadi. Biroq kichik biznesning iqtisodiyotdagi haqiqiy ahamiyatini faqat tasniflash mezonlari orqali baholab bo'lmaydi. Mazkur sektorning milliy iqtisodiyot rivojiga qo'shayotgan hissasini aniqlash uchun uning yalpi ichki mahsulot shakllanishi, aholi bandligi, ishlab chiqarish, eksport va xizmatlar sohasidagi ulushini tahlil qilish zarur.

Shu nuqtayi nazardan, keyingi bosqichda O'zbekistonda kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rni va rivojlanish dinamikasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi dinamikasi⁵ (2021–2025-yillar) (foiz hisobida)

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
YAIMdagi ulushi	54,6	54,3	53,8	53,5	59,2
Bandlikdagi ulushi	73,5	74,1	74,8	75,4	76
Sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi	28,7	29,5	30,2	31	31,8
Eksportdagi ulushi	18,6	19,4	20,1	21	21,7
Xizmatlar sohasidagi ulushi	80,2	81	81,7	82,5	83,1

2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Tahlil davrida mazkur sektorning YAIM, aholi bandligi, sanoat ishlab chiqarishi, eksport va xizmatlar sohasidagi ishtiroki yuqori darajada saqlanib qolgan.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznesning YAIMdagi ulushi **2021-yilda** 56,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, **2025-yilda** 52,2 foizga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkichning biroz pasayishi kichik biznes ahamiyati kamayganini anglatmaydi, balki iqtisodiyot tarkibida yirik sanoat korxonalari, investitsion loyihalar va boshqa iqtisodiy subyektlar ulushining ortishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, kichik biznes hanuzgacha mamlakat iqtisodiy faolligining asosiy manbalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Kichik biznesning aholi bandligidagi ulushi esa yuqori darajada saqlanib, **2021-yildagi** 73,5 foizdan **2025-yilda** 76,0 foizgacha o'sgan. Bu holat kichik tadbirkorlik subyektlarining yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va mehnat bozori barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Sanoat ishlab chiqarishida kichik biznes ulushining 28,7 foizdan 31,8 foizgacha o'sishi mazkur sektorning ishlab chiqarish jarayonlaridagi ishtiroki kengayib borayotganini anglatadi. Bu tendensiya kichik korxonalarning qayta ishlash sanoati, mahalliy ishlab chiqarish va kooperatsiya jarayonlaridagi roli ortib borayotganini ko'rsatadi.

5 Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Eksport ko'rsatkichlari tahlili kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtiroki bosqichma-bosqich kengayib borayotganini ko'rsatadi. **2021–2025-yillarda** eksportdagi ulushning 18,6 foizdan 21,7 foizgacha o'sishi kichik korxonalarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari ortib borayotganidan dalolat beradi. Biroq eksport salohiyatini yanada oshirish uchun xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish, sertifikatlash va marketing imkoniyatlarini rivojlantirish zarur.

Xizmatlar sohasida kichik biznesning ishtiroki eng yuqori ko'rsatkichlardan birini tashkil etadi. Davr davomida mazkur sohadagi ulushning 80,2 foizdan 83,1 foizgacha o'sishi savdo, transport, axborot texnologiyalari, turizm va boshqa xizmat turlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining yetakchi o'rin egallayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2-jadval tahlili kichik biznes O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, YAIMdagi ulushning pasayish tendensiyasi kichik biznesni sifat jihatidan rivojlantirish, ya'ni innovatsion faollik, eksport salohiyati va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning rivojlanishi mamlakatda shakllangan institutsional muhit, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari va innovatsion salohiyat bilan bevosita bog'liq. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarini baholashda ko'p mezonli yondashuvdan foydalanish, ya'ni xodimlar soni bilan bir qatorda yillik aylanma, moliyaviy ko'rsatkichlar va innovatsion faollikni hisobga olish samarali natijalar beradi.

O'zbekistonda kichik biznes iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida shakllangan bo'lsa-da, uning raqobatbardoshligini yanada oshirish uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, eksport salohiyatini kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va innovatsion faollikni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirish talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, iqtisodiy o'sish, aholi bandligini ta'minlash, raqobat muhitini shakllantirish va innovatsion faollikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar natijasida aniqlandiki, kichik biznesning samarali rivojlanishi nafaqat tadbirkorlik tashabbusi, balki institutsional muhit, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari va innovatsion infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarini tasniflashda xodimlar soni bilan bir qatorda yillik aylanma, aktivlar qiymati va faoliyat turi kabi ko'rsatkichlardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq. O'zbekistonda ham kichik biznes subyektlarini baholash tizimini xalqaro yondashuvlarga yaqinlashtirish sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda kichik biznesning YAIM, bandlik, sanoat, xizmatlar va eksportdagi ulushi ortib borayotgani mazkur sektorning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, moliyaviy resurslardan foydalanish, innovatsion faollik, eksport salohiyati va zamonaviy boshqaruv masalalari sohaning dolzarb muammolari sifatida saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, imtiyozli kreditlash va kafolat mexanizmlarini takomillashtirish;
- kichik biznesni tasniflashda xodimlar soni bilan bir qatorda yillik aylanma, aktivlar va innovatsion faollik ko'rsatkichlarini hisobga olish;
- innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash;
- kichik korxonalarning eksport salohiyatini oshirish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish;
- tadbirkorlarning boshqaruv, marketing va moliyaviy savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Umuman olganda, kichik biznesni barqaror rivojlantirish uchun davlat tomonidan yaratilgan qulay institutsional muhit, innovatsion yondashuvlar va bozor mexanizmlarini uyg'unlashtirish zarur. Bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 02.05.2012-yildagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-2006789>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.11.2023-yildagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6658633>



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2023-yildagi "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-306-son qarori // URL: <https://www.lex.uz/uz/docs/-6609110>
4. OECD. *Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard*. Paris: OECD Publishing, 2024.
5. OECD. *SME and Entrepreneurship Outlook 2023*. Paris: OECD Publishing, 2023.
6. European Commission. *User Guide to the SME Definition*. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2020.
7. U.S. Small Business Administration. *Table of Small Business Size Standards*. Washington, DC, 2024.
8. North D. C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
9. Schumpeter J. A. *The Theory of Economic Development*. New Brunswick: Transaction Publishers, 1934.
10. Drucker P. F. *Innovation and Entrepreneurship*. New York: Harper Business, 1985.
11. Hisrich R. D., Peters M. P., Shepherd D. A. *Entrepreneurship*. 11th ed. New York: McGraw-Hill Education, 2020.
12. Cantillon R. *Essai sur la Nature du Commerce en Général*. London: Macmillan, 1931 (1755).
13. Say J.-B. *A Treatise on Political Economy*. New York: Augustus M. Kelley, 1971.
14. Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. Oxford: Oxford University Press, 1976.
15. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш кўрсаткичлари бўйича статистик тўпламлар. Тошкент, 2021–2025.
16. Қосимова Д. С. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришнинг иқтисодий механизмлари. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2020.
17. Арипов О. А. Тадбиркорлик муҳити ва уни давлат томонидан тартибга солиш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2021.
18. Худойқулов О. Ҳ. Кичик бизнес субъектларининг иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2022.
19. Шанаев М. А., Исраилова Х. М. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг инновацион ривожланиши. *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар*. – 2023. – № 4. – Б. 45–56.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>